

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



**07.00.08 – TARIXSHUNOSLIK, MANBASHUNOSLIK VA TARIXIY TADQIQOT
USULLARI IXTISOSLIGI BO'YICHA TAYANCH DOKTORANTURAGA
“MUTAXASSISLIK” FANIDAN QABUL IMTIHONI
DASTURI**

Toshkent- 2024

Dastur Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashida ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan (2024-yil 5-oktabrdagi 2-sonli bayonnaoma).

Tuzuvchilar:

M.M. Is’hoqov – tarix fanlari doktori, professor

A.X. Doniyorov – tarix fanlari doktori, professor

Z.I. Alimov – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Taqrizchilar:

H. Lutfullayev – tarix fanlari nomzodi

A.A. Madraimov – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

KIRISH

Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi juda boy va qadimiydir. Birgina O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti xazinasida oltmis ming jiddagi qo‘lyozma va toshbosma kitoblar, ko‘p ming sonli vaqf va boshqa huquqiy hujjatlar saqlanmoqda. Bundan tashqari mintaqamizdagi qo‘sni davlatlar va jahonning eng yirik qadimiy qo‘lyozma fondlarida son-sanoqsiz yozma yodgorliklar mavjud. Ularning aksariyati o‘z fixristlarini e’lon qilganlar va internet saytlarida aks etgan. Mintaqamiz xalqlari tarixiga oid minglab yozma yodgorliklar o‘z tadqiqotchilarini kutmoqda Shu munosabat bilan tarixiy manbashunoslik va tarixshunoslik sohalari yetuk mutaxassislarga muhtojligicha qolmoqda.

Deyarli uch ming yillik davr tarixini aks ettirgan yozma yodgorliklarni o‘rganish, ularni izlab topish, ilmiy tavsif va tasniflash, eng muhimlarining asl matnlarini zarur ilmiy izohlar bilan chop etish, arab va fors, xitoy, yunon va boshqa tillardagi manbalarni nashr etish, zarurlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish, bu ishlarning natijalarini ilmiy jamoatchilik diqqatiga yetkazish hamda omma orasida ma’lum qilish orqali jamiyatimizning tarixiy tafakkurini o‘stirish dolzarb masaladir.

Ayniqsa, yosh tarixchi pedagoglarni tayyorlashda ularning tarixiy manbalarni o‘rganishi, turkiy, forsiy, arab va boshqa tillardagi tarixiy asarlar, memuarlar, ilmiy qomuslar, manqiblar, tazkiralar, turli hujjat — farmonlar, yorliqlar, shajaratlar, vaqfnomalar, vasiqalar va bosh qalar to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi, ularni tavsiflay olishi, o‘z ilmiy va pedagogik faoliyatida foydalana bilishiga erishish zarur. Chunki yosh avlodga imkonim boricha ertaroq ota-bobolarining boy va serqirra yozma merosi haqida to‘la tasavvur berilsa, o‘tmishga nisbatan hurmat va e’tibor ruhida tarbiyalanishi, o‘zligini anglashi, yurt va vatan, xalq tarixi to‘g‘risida mukammal bilimga ega bo‘lishi ta’milanar edi. Shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlarida mintaqqa tarixini o‘rganishda turlicha yondashuvlar va konsepsiylar paydo bo‘lmoqda. Ularda Markaziy Osiyo tarixini yoritishda noilmiy qarashlar va nazariyalar ustunlik qilmoqda. Shuning uchun ham Markaziy Osiyo mintaqasining tarixini, etnik jarayonlari, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini tarixshunoslik, manbashunoslik asoslarini, eng muhimi mazkur jarayonlarni o‘rganishning tarixiy tadqiqotlar metodlarini, zamonaviy usullarini, nazariy metodologik asoslarini chuqur biladigan ilmiy-pedagogik kadrlarga ehtiyoj kundankunga ortib bormoqda.

“07.00.08 — Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari” mutaxassisligi bo‘yicha tayyorlanadigan bo‘lajak oliy darajali mutaxassislarga shundan kelib chiquvchi talablar qo‘yiladi. Shuning uchun ham mazkur soha bo‘yicha bo‘lajak kadrlar nafaqat mintaqqa va jahon xalqlari tarixi taraqqiyotining umumiyligini qonuniyatlarini, balki, tarixshunoslik, manbashunoslikning ilmiy nazariy asoslarini, tarixiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini qiyosiy tahlil qila olish qobiliyatiga ega yoshlar orasidan tanlab olinishi eng muhim va dolzarb masaladir. Mazkur dasturning va unda aks etgan savollarning maqsad va vazifasi aynan shu muammoga qaratilgandir.

Bu vazifalarni bajarish uchun esa bo‘lg‘usi tarixchi pedagoglar tarixiy manbashunoslikni mukammal bilishi lozim. Manbashunoslik tarix ilmining asosiy va fundamental sohasi bo‘lib, turli manbalar — moddiy, etnografik, arxeologik va yozma yodgorliklardan foydalanish nazariyasi va amaliyoti ustida tadqiqot olib boradi.

Tarixshunoslik sohasi ham keyingi paytlarda dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Bu sohani o‘qitish tarixning o‘rganilish tarixiga asoslanib, mavjud muammolarni chuqurroq tahlil qilib, tanqidiy metodologik xulosalarga kelishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Tarixshunoslik tarixning metodologik asoslarini belgilab beruvchi va tadqiqotlar istiqbolini ta’minlovchi omil hisoblanadi.

Tarix to‘g‘risidagi bizning barcha bilimlarimiz kitob, jurnal, gazeta, radio, televideniye va kishilardan eshitgan ma’lumotlarga asoslanadi. Bu ma’lumotlar esa o‘z o‘rnida turli manbalarda bayon qilingan bo‘ladi. Tarixiy fakt va voqealar bayoni inson xarakteri, ma’lumot beruvchi shaxs, guruh, ijtimoiy toifalar va mamlakatlar manfaati yo‘lida turlichay talqin qilinishi mumkin. Bu ma’lumotlarni qiyoslab, tahlil qilishgina tarixni obyektiv o‘rganishga xizmat qiladi.

Tarixshunoslik tarix ilmining muhim va asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, tarix fanining taraqqiyot yo‘llarini, insoniyat jamiyatini taraqqiyotiga oid aniq bilimlarni umumlashtirish, baholash bilan shug‘ullanadi.

Biz talqin etayotgan mintaqaga tarixshunoslige kelsak, u hali yetarli o‘rganilgan emas. Undagi yo‘nalishlar, maktablar hali yetarli talqin etilmagan.

Dasturning maqsadi va vazifalari

“07.00.08 — Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari” mutaxassisligi bo‘yicha tayyorlanadigan bo‘lajak kadrlarning yuqorida bayon etilgan masalalar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini aniqlash va tegishli tarzda baholash ushbu dasturning maqsadini belgilaydi. Ushbu dastur va uning asosida tuzilgan savollar aynan shu vazifaga qaratilgandir. Bu maqsad va vazifalarni bajarish uchun bo‘lg‘usi tadqiqotchi va oliv malakali pedagoglar tarixiy manbashunoslikni va tarixshunoslik asoslarini mukammal bilishlari lozim.

Asosiy qism

“07.00.08 — Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari” mutaxassisligi yuzasidan tayanch doktoranturaga kirish imtihoni savollarining mazmuni kafedra o‘quv rejasidagi bakalavriat va magistratura bosqichida olingan, hamda Respublikaning boshqa OTM laridagi ushbu soha bo‘yicha ta’lim beruvchi yo‘nalish va mutaxassislik diplomiga ega bo‘lgan shaxslarga mo‘ljallangan. Dastur va savollar Markaziy Osiyo mintaqaga tarixinining manbashunosligi va tarixshunosligi muammolari, Markaziy Osiyo mintaqaga tarixshunosligening hozirgi muammolari, tarixiy tadqiqotlarning zamonaviy usullari va ularning tahlili, sivilizatsiyalar tarixida Markaziy Osyoning o‘rni, Markaziy Osiyo tarixiy xaritalari va ular bilan ishlash amaliyoti, qo‘lyozmalar bilan ishlash amaliyoti, individual ilmiy-tadqiqot va eksperimental ish va boshqa o‘quv fanlari yuzasidan tayyorlangan.

“07.00.08 — Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari” mutaxassisligi yuzasidan kirish imtihoni bo‘yicha ko‘rsatma va yo‘llanmalar.

Kirish imtihonlari savollarini raqamli variantlar shaklida, har bir variantda uchtadan savol kiritib tuzilgan. Savollarning birinchisi, “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi manbashunosligi”dan, ikkinchisi “Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi”dan, uchinchisi “Tarixiy tadqiqot metodologiyasi va metodlari” sohalari bo‘yicha qo‘yilgan.

Savollarni tuzishda davriylik, uzlusizlik va tarixiy uzviylik tamoyillariga asoslanilgan.

Kirish imtihonlari oldidan kafedra mutaxassislik bo‘yicha savollarni ilmiy bo‘limga topshiradi va elektron nusxa hamda qog‘oz ko‘chirmasi orqali tayanch doktoranturaga talabgorlarni tanishtirish imkoniyati yaratiladi. Jumladan:

I Blok

Markaziy Osiyo xalqlari tarixi manbashunosligi

1. Manbashunoslik fanining maqsad va vazifalari.
2. Manbalarning turlari. Yozma manbalar.
3. Etnografik manbalar.
4. Lingvistik manbalar.
5. Manbashunoslikning yo‘nalishlari.
6. Manbashunoslikning nazariy va amaliy muammolari.
7. Manbalarga tasnifiy, tahliliy, va talqiniy yondashuv tamoyillari.
8. Tarixiy manbalarda muallif qarashlari va tarixiy reallik masalasi.
9. Mavzu yo‘nalishlari bir xil va o‘zaro yaqin yozma manbalarning qiyosiy germenevtik tahlili tamoyillari.
10. Islomgacha qadimiylar Markaziy Osiyo yozma yodgorliklari manbashunosligi: parfiyoniy Eski Niso arxivi.
11. Kodikologik ma’lumotlarni aniqlash: Qadimiylar va o‘rta asrlar kitob tayyorlash texnologiyasida kasbiy yo‘nalishlar kooperativligi.
12. Kitobbatchilik ishida miniatyuralar va kitob dizaynining tarixiy manbaviy ahamiyati.
13. Tarixiy manbalarni janr yo‘nalishlari bo‘yicha tasnif qilish. Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi yozuvlari va yozuv madaniyati (xorazmiy, sug‘diy, boxtariy, parfiyoniy, turkiy, turkiy-uyg‘ur yozuvlarining manbaviy ahamiyati).
1. Sug‘d yozma yodgorliklari tarixiy manba sifatida (Mug‘ tog‘i sug‘d hujjatlari asosida).
2. Xorazmning Tuproqqala yodgorligidan topilgan xorazmiy yozuvi yodgorliklarining tarixiy manbashunoslik tahlili.
3. Tarixiy yozma manbalarning turlari va tasnifi tamoyillari.
4. Markaziy Osiyoning tarixiy xaritalari, ularning manbaviy, ilmiy, amaliy ahamiyati.
5. Yunon muarrixlari va geograflarining Markaziy Osiyo haqidagi asarlari haqida umumiylar ma’lumot.
6. Gerodotning “Tarix” asarida O‘rta Osiyo xalqlari ajdodlari tarixiga oid ma’lumotlar tahlili va ilmiy-amaliy bahosi.
7. Qadimgi turkiy “runiy” yozma yodgorliklarning tarixiy manbaviy tafsiloti va ahamiyati.
8. Sug‘d yozma yodgorliklari tarixiy manba sifatida (Mug‘ tog‘i sug‘d arxivi misolida).
9. Tuproqqala, To‘qqala, Mizdahkan, Yakka Porson, Xumbuz tepadan topilgan qadimgi xorazmiy yozma yodgorliklari mazmuni va tarixiy manba sifatidagi ahamiyati.
10. Qadimgi Baqtriyaning yunon-boxtar yozuvli yodgorliklari: Surx kotal, Ayrитом bitiklari.
11. Ravatak arxivi Kushanlar davri tarixining manbalari sifatida.i bitik misolida

12. Qorabolg‘asun uch tilli bitigining sug‘diy versiyasi Uyg‘ur xoqonligi tarixining yodgorligi sifatida.
13. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tarixiy manba sifatida.
14. Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab sug‘d yozma yodgorliklarining tarqalishlarning Turk xoqonligi tarixi bilan bog‘liq namunalari: Bug‘ut sug‘d yodgorligi, Niri qog‘on qabr toshida.
15. IX-X asrlarga oid arab tilli manbalarda Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasiga oid ma’lumotlar: (Ya’qubiy, Ibn Xurdodbeh, al-Istaxriy, Ibn Xaukal va boshqalar).
16. XI-XIII asrlarga oid yozma manbalar. (Balazuriy, Abu Yusuf Ya’qub, Ibn al-Fakih, at-Tabariy, Rashididdin va boshqalar).
17. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ot at-turk” asarining tarixiy manbaviy tahlili.
18. Narshaxiy va uning “Buxoro tarixi” asari Markaziy Osiyo tarixi bo‘yicha ilk tarixiy asar sifatida.
19. “Tarixi Buxoro” kitobi Quboviyning fors tiliga tarjimasida. Undagi qo‘shimchalar va tahririy yangiliklarning manbashunoslik tahlili.
20. Mug‘ullar istilosи va hukmronligi davri yozma manbalari (Ibn al-Asir, Shahobuddin Muhammad Nisoviy, Juvayniy, Rashiduddin va Kazviniy).
21. Temur va temuriylar davri yozma manbalari tahlili.
22. Temuriylar traixiga oid yozma manbalarning qiyosiy tahlili.
23. “Temur tuzuklari” asari va uning davlatchiligidan tarixini o‘rganishdagi ahamiyati.
24. Navoiy va uning tarixiy asarlari (“Tarixi anbiyo va hukamo”, “Tarixi muluki Ajam”).
25. Zahiriddin Muhammad Bobur tarixchi va etnograf olim sifatida.
26. Shayboniylar va Ashtarkoniylar davri yozma manbalari va ularning klassifikatsiyasi.
27. Xorazm tarixchilik maktabi va unda yaratilgan nodir yozma manbalar tafsiloti (XVIII-XX asrlar).
28. O‘rta asr tasavvuf tarixi manbalari: Tazkiralar, manoqiblar, silsila asarlar.
29. Qo‘qon xonligida tarix ilmining rivojlanishi (XVIII-XIX asrlar).
30. Buxoro tarixiga oid yozma manbalar (XVIII-XIX asrlar).
31. Jo‘ybor shayxlari arxivi tarixiy manba sifatida: o‘rganilishi va navbatdagi vazifalar.
32. Xiva xonligi Qozilik arxivni va o‘rganilishi.
33. Vaqf hujjatlari o‘zbek xonliklari tarixini o‘rganishda muhim manba.
34. Turkistonning Rossiya tomonidan istilo qilinishi rus manbalarida.
35. Turkistonning Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylanish tarixi mahalliy manbalarda.
36. Mustamlakachilik davri tarixiga oid arxiv fondlari va ularning klassifikatsiyasi (XX asr tarixi).
37. Numizmatik materiallarining Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o‘rganishdagi ahamiyati.

II Blok

Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi

1. Tarixshunoslik fani predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. Tarixshunoslikning nazariy-metodologik asoslari. Tarixshunoslik tadqiqotlarining tahlil usullari.
3. Tarixshunoslik fanida tadqiqotchining vazifasi. Xolisona va haqqoniy tarixni yaratish — tarix fanining bosh maqsadi sifatida.
4. Tarixshunoslik fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Fanlararo yondashuvning mazmuni.
5. Markaziy Osiyoda qadimiy davlatlari Qadimgi Xorazm, Baqtriya va Qang' tarixshunosligi.
6. Avesta va zardushtiylik ta'lomi o'r ganilish tarixidan.
7. Xiyoniylar, kidariylar (toxarlar) va eftallarning manbalarda yoritilishi masalasi.
8. Arab istilosи va musulmon uyg'onish davri tarixshunosligi.
9. Ma'mun akademiyasining ilm-fan taraqqiyotidagi ahamiyatini.
10. O'rta asr tarixchilarining tarixnavislik an'analari: umumiylar va xos tarix yaratish usullari.
11. A.Temur va Temuriylar davri tarixshunosligi (mustaqillik davri).
12. A.Temur va Temuriylar davri tarixshunosligi (soviet davri).
13. Xiva xonligi davri tarixshunosligi.
14. Qo'qon xonligi davri tarixshunosligi.
15. Jadidchilik harakati tarixshunosligidagi zamonaviy qarashlar.
16. O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi masalasining o'r ganilishi va adabiyotlarda yoritilishi.
17. Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatining O'zbekiston mustaqillik yillaridagi tarixshunosligi.
18. Mustaqillik yillarida milliy-ozodlik harakatlari.

III blok

Tarixiy tadqiqot metodologiyasi va metodlari

1. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I. Karimov asarlarida tarix tadqiqotlariga qo'yilgan metodologik talablar.
2. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoevning O'zbekiston tarixiga oid tarixiy manbalarni o'r ganishga doir vazifalari.
3. Tarixiy tadqiqotlarning ilmiy metodlari va metodologiyasi.
4. Qo'lyozma yodgorliklarga birlamchi ishlov berish usullari, qo'lyozmalar kataloglarini tuzish qoidalari.
5. Tarixiy manbalarga qiyosiy yondashuv va tanqidiy munosabat tamoyillari.
6. Tarix tadqiqotlarida xolislik va tarixiylik tamoyillari.
7. Paleografik tadqiqot metodlari va matnshunoslikning uzviy bog'liqligi.
8. Yozma manbalar ustida ishlash usullari va texnologiyasi.
9. Yozma manbalarning tanqidiy matnnini tayyorlash metodlari.
10. Tarixiy jarayonlarning obyektivligi va tarixiy tadqiqotlarning subyektivligi o'rtaida muvozanatni saqlash masalasi.

11. Mustaqillik davrida mintqa tarixining yoritilishidagi turli metodologik yondashuvlarning tanqidiy tahlili.
12. O‘zbek davlatchiligi tarixining metodologik muammolari.
13. Davlatchilik tarixi va davlatlar tarixi o‘rtasidagi munosabat: davlatchilik tarixiga institutsional yondashuv.
14. Shaharsozlik tarixini o‘rganishda shahar birligining mezonlari.
15. Tarix va xronologiya muammolarining metodik asoslari.
16. Yozma manbalarga tasnifiy yondashuv tamoyillar.
16. Qattiq materiallar yuzasidagi yozuvlarni o‘rganishning dolzarbliji (epigrafik yodgorliklar bilan ishlash usullari).
17. Yozma yodgorliklarni o‘rganishda tarixiylik, ijtimoiy yo‘naltirilganlik masalasini hisobga olish tamoyili.
18. Yozma yodgorliklarni birlamchi ishlovdan o‘tkazish, tavsiflash, kataloglashtirish usullari.
19. Arxeografiyaning dolzarb muammolari: yozma yodgorliklarni izlash, topish va fondlarga jalb etish masalalari.
20. Tarixiy-geografik asarlar bilan ishlash va ularning topografik qiyosiy tahlili masalalari.
21. Sharq lug‘atlarining tasnifiy tadqiqoti masalalari.
22. Diniy manbalarning tarixiy-ijtimoiy, axloqiy-falsafiy ahamiyati va ularni ilmiy istifoda etishga qo‘yiladigan talablar.
23. O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I. Karimovning tarix tadqiqotlari metod va metodologiyasini takomillashtirish haqidagi fikrlari.
24. Qoraxoniylar davri tarixining yozma manbalarini o‘rganish muammolari.
25. G‘aznaviylar davlatining turkiy davlatchilik tarixidagi o‘rni.
26. So‘nggi o‘rta asrlar tushunchasi va bu davr Markaziy Osiyo tarixining yoritilishida an’anaviy va yangicha qarashlar tahlili.

Kirish imtihonlari natijalarini baholash mezonlari

Imtihonni baholash uchun maksimal baho – 100 ball etib belgilanadi.

JAMI 4 ta savolga: 100 ball, shundan:

- 1-savolga javob: maksimal – 25ball;
- 2-savolga javob: maksimal – 25 ball;
- 3-savolga javob: maksimal – 25 ball;
- 4-savolga javob: maksimal – 25 ball.

Har bir savol bo‘yicha javoblarni baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

- nazariy va amaliy bog‘liqlikda yoritilgan;
- mazmunni yoritishda mustaqil ilmiy mushohada;
- nom va ilmiy atamalarni bilish darajasi;
- ilmiy mushohada yuritish iqtidori to‘la ko‘rinsa;

- keltirilgan faktlar hozirgi davrdagi jarayonlar, o‘zgarishlar bilan o‘zaro aloqadorlikda ochib berilgan, chuqur ilmiy tahlil etilgan hamda xronologik jihatdan to‘g‘ri yoritilgan;
- o‘z fikrini tizimli mustaqil tahlil qilgan, erkin va mustaqil ifoda eta olgan;
- fikr aniq va izchil ifodalangan, barcha savollar mutlaqo to‘liq yoritilgan va bunda tegishli ilmiy adabiyotlarga tayanilgan;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning asarlarida bayon qilingan tamoyillar va xulosalarga har tomonlama chuqur asoslangan javoblarga *a’lo* baho qo‘yiladi.

Barcha savollarga nisbatan to‘liq javob berilgan, fikr izchil ifodalangan, lekin bunda tegishli ilmiy va uslubiy adabiyotlarga kamroq e’tibor berilgan bo‘lsa, *yaxshi* baho qo‘yiladi.

Barcha savollarga qisman javob bera olgan va ma’lum darajada ilmiy, o‘quv-uslubiy adabiyotlaridan foydalangan bo‘lsa, *qoniqarli* baho qo‘yiladi.

Fikr aniq ifoda etilmagan, bironta ham savolga qisman bo‘lsa-da to‘g‘ri javob berilmagan, tegishli ilmiy, o‘quv-uslubiy adabiyotlardan mutlaqo foydalanilmagan javoblar uchun *qoniqarsiz* baho qo‘yiladi.

Tavsiya qilingan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2016.- 56 b.
2. Mirziyov Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. — T.: “O‘zbekiston”, 2018. — 48 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. — 488 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil 24 maydag‘i “Qadimgi yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2995-sonli qarori.
6. A.Madraimov, G. Fuzailova. Tarixiy manbashunoslik. — T. 2005.
7. Vostochnoe istoricheskoe istochnikovedenie i spesial’nie istoricheskie dissiplini. Vip. 1. — M. : Nauka, GRVL, 1989.
8. Vspomogatel’nie istoricheskie dissiplini.T.1-3. — L. : Nauka, 1968-1970.
9. Gukovskiy A. I. O nekotorix terminax vspomogatel’nix istoricheskix dissiplin // Voprosiistorii 1965. 11 0. s. 62-65.
10. Istochnikovedenie. Teoriticheskie i metodologicheskie problemi. M. Nauka. 1969.
11. Krachkovskiy I. Yu. Izbrannie sochineniya. T. VI. M. -L. : 1957.
12. Bronshteyn A. Metodika istoricheskogo issledovaniya. Rostov. 1971.
13. Akimushkin O. F. Persidskaya rukopisnaya kniga // sb. : Rukopisnaya

- kniga v kul'ture narodov Vostoka. T. I. M. , 1987, s. 332-335.
14. Alimova D. A. Istorya kak istoriya, istoriya kak nauka. Tom I. Istoricheskoe soznanie. – Tashkent: Uzbekistan, 2008. – 280 s.
 15. Alimova D. A. Istorya kak istoriya, istoriya kak nauka. Tom II. Fenomen djadidizma. – Tashkent: Uzbekistan, 2009. – 170 s.
 16. Alimova D. A. Istorya kak istoriya, istoriya kak nauka. Tom III. Konsepti istorii Uzbekistana: teoriya i gipotezi. – Tashkent: Media Land, 2018. – 520 s.
 17. Ahmedov B. A. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. – Toshkent. 1991.
 18. Ahmedov B. A. Istoriko-geograficheskaya literatura Sredney Azii XVI-XVII vv. Pis'mennie pamyatniki. Tashkent, 1985.
 19. Bartol'd V. V. Sobranie sochineniy. T. I-IX. M. 1963-1976.
 20. Gibb X. A. R. Musul'manskaya istoriografiya // Arabskaya literatura. Perevod B. A. Gryaznevicha, – M. , 1960.
 21. O'zbekistonning eng yangi tarixi. T. 1-3. – Tashkent. 2000.
 22. Lunin V. V. Istoryografiya obshchestvennykh nauk v Uzbekistane. Tash. 1974.
 23. M. Ishoqov. Yasht kitobi-tarjima. T. , 2001
 24. Istorya gosudarstvennosti Uzbekistana. V trex tomakh. Tashkent, 2009.
 25. Alimova R.R. Markazi Osiyo xalqlari tarixi (o'rta asrlar). –Toshkent. 2013.
 26. Doniyorov A.X. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi. O'quv qo'llanma. –T., TDSHI, 2014.
 27. Doniyorov A. Istoryografiya etnografii nezavisimogo Uzbekistana (1991-2001 gg.). Tashkent: Yangi asr avlod, 2003.
 28. Doniyorov A, O. Bo'riev, A. A. Ashirov. Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi, etnogenezi va etnik tarixi. Tashkent: Yangi nashr, 2011.
 29. Saidov Sh. J. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2010.
 30. Ishoqov M.M., Xudoynazarov I.B. Yordamchi tarixiy fanlar. Oquv qo'llanma. – T., 2019.‘
 31. Materiali po istorii Kazaxskix xanstv XV-XVIII vekov. Alma-Ata: Nauka. 1969.
 32. Materiali po istorii turkmen i Turkmenii. T. 1. VII-XV v. v. M-L. , 1938.
 33. Materiali po istorii Sredney i Sentral'noy Azii X-XIX vv. – Tashkent, 1988. – 414 s.
 34. Mikluso-Maklay N. D. Opisanie persidskix i tadjikskix rukopisey In-ta vostokovedeniya. Vip. 3. Istoricheskie sochineniya. M. 1975.
 35. Prozorov S. M. Arabskaya istoricheskaya literatura v Irake. Irane i Sredney Azii v VII-seryu X v. Shiiskaya istoriografiya. M. , 1980.
 36. Sobranie vostochnix rukopisey. An UzSSR. T. I-XI. Tash. 1952. 1987.
 37. Stori Ch. A. Persidskaya literatura. Bibliograficheskiy obzor: Per. s angl. T. I-III M. 1972.
 38. Sobranie vostochnix rukopisey ANRUz. Istorya. Sostaviteli: Yusupova D. Yu. , Djalilova R. P. , Tashkent, 1998.
 39. Katalog xivinskix kaziyskix dokumentov (XIX- nachalo XX vv.). Kiota-Tashkent 2001.
- Qo'shimcha adabiyotlar**
1. Alimova D. A. Istorya kak istoriya, istoriya kak nauka. I-II tt. Tashkent. «Fan».

2008.

2. Vasilev L. I.. Istorya Vostoka. V 2-x tomax. Vvedenie. M. 1998.
3. Istorya Kazaxstana: Narodi i kulturi. Almati. 2001.
4. Kan G. Istorya Kazaxstana. Almati. 2002; 2005.
5. Karimov I. A.. Asarlar. 1-19-jildlar. T. ,O‘zbekiston. 1996-2008.
6. Materiali po istorii turkmen i Turkmenii. T. I-II M. , 1938-1939.
7. Muhammad Amin Bug‘ro. SharqiyTurkiston tarixi. Urumchi. 1948. (Faks nashr-1998).
8. Muhammadjonov A., M. M. Ishoqov. O‘zbekiston tarixining dolzARB muammolari. “O‘zbekiston tarixi” 1999, №2.
9. Rtveladze E. V., A. S. Sagdullaev. Sovremenie mifi o dalyokom proshlom narodov Sentralnoy Azii. –T. , 2007.
10. Sagdullaev T. O‘zbekiston tarixi ilk yozma manbalarda. – Toshkent, 1996. – 255 b.
11. Tarixiy manbashunoslik, tarixnavislik, tarix tadqiqoti metodlari va metodologiyasining dolzARB masalalari. Ilmiy to‘plam Mas’ul muharrir M. Ishoqov. – Toshkent: TDShI, 2016-2019.
12. O‘zbekiston xalqi va davlatchiligi tarixining konsepsiysi. “O‘zbekiston tarixi” №1, 1999.

